



XORIJIY TILLARINI O'QITISHDA TINGLAB TUSHUNISHNING AHAMIYATI.

Toshkent davlat yuridik universiteti Xorijiy tillar kafedrasida dotsenti

Manzura Shamsitdinova

Hozirgi kunda Respublikamizda xorijiy tillarni mukammal biladigan yetuk mutuxassislarga talab ortib bormoqda. Xususan ingliz tilini o'rganishni davr taqozo etmoqda. Har tomonlama barkamol o'z kasbini yaxshi biluvchi kadrlarni tayyorlash maqsadida barcha oliy o'quv yurtlarida Xorijiy tillarni o'qitishga katta e'tibor berilayotganligi hammamizga ma'lum.

Xorijiy tillarni o'rganish turli madaniyatlarga yo'l ochib beradi. Yuqori sifatli til ta'limoti talabalarning til o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini yanada ortishiga va olamni anglashini chuqurlashtirishga yordam beradi. Til o'qitish talabalarni o'z fikrlarini, g'oyalarini boshqa tilda namoyon qila olishi, og'zaki va yozma nutqda so'zlovchiga javob qaytarishini ta'minlashi kerak. Undan tashqari, til o'rganish o'rganuvchilarni turli amaliy maqsadlarda muloqotni va adabiyot asarlarini haqiqiy tilda o'qish imkoniyatlari bilan ta'minlashi va kelajakda boshqa chet tillar o'rganilishiga asos bo'lib, o'quvchilarning boshqa mamlakatlarda o'qish va ishlashga tayyorlashga xizmat qilishi kerak.

Ingliz tilida nutqiy muloqotni amalga oshirish uchun nutq faoliyati turlariga mos bo'lgan ko'nikma va malakalarni shakllantirish talab etiladi. Nutqiy faoliyat: og'zaki va yozma tarzda amalga oshadi. Og'zaki nutq, ya'ni gapirish nutqiy faoliyatning boshqa turlari bilan ham bog'liq va bir-birini to'ldiradi. Tinglab tushunish va o'qish orqali ma'lumot olinsa, gapirish va yozish orqali ma'lumot



uzatiladi. Talabalarda tinglab tushunish ko'nikmasining qanchalik yaxshi shakllanganligi gapirish va to'g'ri talaffuz qilish bilan bog'liq ko'nikmalarini o'stirishga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi va xorijiy tilda berilayotgan axborot mazmunini aniq tushunishga hamda ushbu axborotni qayta aytib berish, ya'ni "retelling" bilan bog'liq ko'nikmalarni shakllantirishga ham yordam beradi.

Chet tilida tinglab tushunish ko'nikmalarni o'stirishda o'qituvchining nutqi muhim o'rin tutadi. O'qituvchi o'quv jarayonida o'rganilayotgan xorijiy tilda qanchalik ko'p gapirsa, auditoriyada xorijiy til muhiti shunchalik uzoq saqlanib turadi. Bu esa o'z navbatida talabalarda tinglab tushunish ko'nikmalarini o'stirishga yordam beradi.

Tinglab tushunish uchun tanlab olingan matnlar xorijiy til o'rganuvchilarining yoshiga, qiziqishiga va bilim darajasiga mos bo'lishi lozim. O'qituvchining nutqini ravonligi, talaffuzining tiniqligi, gapirish tezligi ham meyoriy darajada bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Nutq faoliyati turlarining har biriga xos qiyinchiliklar mavjud. Tinglab tushunishda sodir bo'ladigan qiyinchiliklar bir talay. Ularni bilish chet tili o'rgatishda hal qiluvchi shartlardandir. Idrok etish, jumladan nutqni idrok etib tushunish muammolari jahon ruhshunosligida mufassal ishlab chiqilgan. Chet tili o'qitish metodikasi fani mavjud nazariy mulohazalardan samarali foydalanadi.

Nofilologik oliy talim muassasalarida talabalarning tinglab tushunish qiyinchiliklari quyidagilardan iborat:

1. Tilga oid shakliy qiyinchiliklar, ikki yoki undan ortiq so'zlarning har biri bir xil talaffuzga ega, ammo ma'nolari, kelib chiqishi yoki imlosi turlicha

(omofonlarni) yoki chet tili fe'lining majhul darajasini tinglash va tushunish murakkablik kasb etadi. Omofon va majhul fe'l bir qarashda tanishga o'xshaydi, biroq audiomatnning mazmunini payqashda qiyinchilik tug'diradi.

2. Mazmunga doir qiyinchiliklar: Olinayotgan axborot qamrovidagi nima, qaerda, kim bilan, qachon bo'lishi kabi dalillarni idrok etish bobida yoki ular orasidagi bog'lanishni ilg'ab olish, shuningdek, umumiy g'oyaga taaluqli qiyinchiliklar mavjuddir.

3. Nutqiy idrok qilishning shart – sharoitidagi qiyinchiliklar. Bulardan nutq tezligi, ohangi va mexanik yozilgan audio matnning murakabligini eslatish kifoya. Shu bilan birga audiomatnni bir marta idrok qilish, notanish odamni tinglash, ovozidagi o'ziga xoslik kabilar ham tushunishda g'ov bo'lishi tabiiy.

4. Nutq shakliga oid qiyinchiliklar. Dialog nutqda javob qaytarish, monologni tinglashda esa jummalarni eshitishi xotirasida saqlash o'quvchi uchun muayyan qiyinchilik keltirib chiqaradi.

5. Tilshunoslik nuqtai nazaridan sodir bo'ladigan qiyinchiliklar. Ularni lisoniy – leksik, grammatik va fonetik qiyinchiliklar deb ataladi. Leksikada juft tushunchalar (masalan, dunyo tomonlarini ifodalovchi so'zlar, ko'p ma'nolilik (polisemiya) turg'un birikmalardagi so'z ma'nosi, yordamchi so'zlar, grammatik jihatdan ona tilida yo'q xodisalar yoki fonetik tarafdin so'zning yozuvda va talaffuzda keskin tavafuti, urg'u va ohangning o'xshamasligi tegishli qiyinchiliklarga sabab bo'ldi.

6. Audiomatn tuzilishiga oid qiyinchiliklar: Audiomatnning tuzilishi (kompozitsion - mazmuniy tuzilishi) ham qiyinchiliklarga olib kelishi aniqlangan. Chunki bayon etilayotgan axborotni ilg'ab olishga uning bevosita daxli bor.



Gapning yoki satr boshining bir – biriga mantiqan yopishishi, matnning yuzaki yoki chuqurligi, notanish leksik birliklar ishtiroki va qator o‘xshash kompozitsion – mazmuniy holatlar audiomatnning tushunilishi darajasini belgilovchi omillardir.

Talaba tinglab tushunishda duch keladigan qiyinchiliklarni e’tirof etishdan maqsad ularning oldini olish choralarini ko‘rishdir. Qiyinchiliklar mehnat va vaqt talab qiladi, maxsus mashqlarni bajarish zaruriyatini tug‘diradi. Qiyinchiliklarni o‘z vaqtida bartaraf qilish (neytrallashtirish) yo‘li bilan ta’lim jarayonini jadallashtirish va o‘qitishning eng maqbul (optimal) metodikasini ishlab chiqarishga muvofiq bo‘linadi.

Til o‘rganishda yoki umuman hayotda sodir bo‘ladigan qiyinchiliklar sabab va oqibatning bir - biri bilan bog‘liq ravishda aniqlanadi. Qiyinchiliklarni oldindan aniqlash, uning sabablarini bilish mumkin. Qiyinchilikning yuzaga chiqishi turli xatolar va ko‘zlangan natijaga erishish darajasi bilan belgilanadi. O‘quvchilarning o‘zgalar nutqini idrok etib, uning mazmunini faximlay olishlaridan qiyinchiliklarni bartaraf etish yo‘lida tinglab tushunishning psixofiziologik mexanizmlarini to‘g‘ri shakllantirish katta ahamiyat kasb etadi. Og‘zaki nutqni o‘rgatish chet tili o‘qitishning asosiy amaliy maqsadlaridan biridir.

Oliy o‘quv yurti bitiruvchilari chet tilida og‘zaki axborot bera olishlari va suhbatlasha olishlari, o‘rganilgan tematikaga bog‘lik bo‘lgan chet tilidan nutqni eshitib tushunishlari kerak. Birinchi navbatda og‘zaki nutqni o‘rganishning muammosini eslatib o‘tish lozim bo‘ladi.

Avvallari, leksik va grammatik elementlar, og‘zaki nutq materiali sifatida alohida olib qaralgan bo‘lsa endilikda, xozirgi tilshunoslik yutuqlariga asoslanib, nutqning grammatik, leksik va fonetik komponentlari birligidan iborat kompleks



birliklar haqidagi masalani qo'yish imkoniyati tug'ildi. So'ngra shunday murakkab birliklarini bilib olishga qaratilgan tayyorlov mashqlari, bu mashqlarning turlari, ularning og'zaki nutqni o'qitishi umumiy sistemasidagi salmog'i kabi masalalardir. Nutq o'rganilayotgan til materialidan foydalanish malakalarini o'stirishni ta'minlovchi nutq mashqlari xaqidagi masala yanada murakkabroqdir. Darsda tabiiy nutq muammosi muhitni yaratishga intilish dialogik va monologik og'zaki nutq muammosini bir - biridan ajratib qo'yishga, shuningdek o'qitishni va og'zaki nutqning boshqa bir tomoni suhbatdoshni nutqini maxsus topshiriq sifatida idrok etishni alohida ajratishga olib boradi. Oliy talim muassasalarida chet tillarni o'qitishning xozirgi zamon amaliyotida og'zaki nutq munosib o'rinni egallaydi. O'qituvchilarning diqqat - e'tibori, asosan bu mashqlarning turini ko'paytirishga, ularning qiziqarli bo'lishiga, dars olib borishning munosib tezligini ta'minlashga, darsga o'qituvchilar talabalarni ko'pchiligini jalb etishga qaratilgan. Nutqiy faoliyat mobaynida talabalar guruhdoshlarining fikrlarini tinglab tushunadilar va o'z navbatida shaxsiy fikrlarini bayon etadilar. Til o'yinlari talabalardagi uyalish, ikkilanish, xato qilib qo'yishdan cho'chish kabi psixologik to'siqlarni olib tashlashga va ularni o'yin asosidagi nutqiy faoliyatda hech ikkilanmasdan faol ishtirok etishlariga imkon yaratadi. Yo'l qo'yilgan xatolar esa, o'yin tugagandan so'ng to'g'rilanadi. Bu talabalarni o'z kuchlariga ishonchini mustahkamlashga va o'z fikrini o'rganayotgan xorijiy tilda ifodalashga o'rgatadi.

Xulosa. Chet tilda tinglab tushunish va gapirishga o'rgatishga yuqorida keltirilgan omillar va tavsiyalarni hisobga olgan holda o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish auditiv ko'nikmalarni shakllantirish va o'stirishda kafolatlangan

natijalarga erishishga va xorijiy tilni o'rganish samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Adabiyotlar

1. Yaqubova M. M Xorijiy til o'qitishda tinglab tushunish va gapirishga o'rgatishning ahamiyati 2013y.

2. Shamsitdinova M.G. (2025) Improving law students' listening competence in legal discourse. O'zbekiston milliy universiteti xabarлари, Toshkent – 2025, [1/2] ISSN 2181-7324

3. Manzura Gopporovna Shamsitdinova (2025) Huquqshunoslik yo'nalishi talabalari uchun tinglab tushunish kompetensiyasini rivojlantirish Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Ilmiy-uslubiy, ma'naviy-ma'rifiy jurnal Sharqdash'ali jurnali № 1, 2025-yil B 66 -79. ISSN 2010-9709